



CHET TILINI YOSHGA QARAB O'RGATISH TUZILMALARI

Narzullayeva Marjona

Samarqand davlat Chet tillar Institutu talabasi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada ingliz tilini o'qitishning innovatsion loyihalari, hamda bunda ingliz tilini o'rganuvchilarning yoshini hisobga olish haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: metod,xorijiy til,visual learning,auditor learning,kinaesthetic learning,noisy dictation,Grammatik shakl,zamonaviy texnologiyalar.

Ushbu maqolada turli xil yoshdagi insonlarning chet tillarni o'rganishi va chet tillarining ularning hayotida qay darajada muhim o'rinni turishi , mактабгача yoshdagi bolalar,maktab yoshidagi bolalar hamda Yoshi katta insonlarning chet tillarini o'rganishi va afzaliklari haqida fikr yuritilgan .

Til o'rganish kishilik jamiyatida juda muhim sohalardan hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'l mish tilni tabiiy muhitda oilada, jamoatchilik orasida egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rganiladi. Ma'lumki, chet tilni o'rgatish-o'rganish muayyan jihatlari bilan ona tili va ikkinchi tildan keskin farq qiladi. Bu esa, o 'z o'rnila, tegishli chet til o'qitish texnologiyasini qo'llashni taqozo etadi.

Bolalar yangi narsalarga juda qiziquvchan bolishadi.Shuning uchun, ko'p hollarda ular, bu masalaga uddalab bo'lmas vazifa sifatida qaraydigan katta yoshdagi insonlarga nisbatan, chet tillarini yaxshiroq o'zlashtiradilar. Xo'sh, qaysi yoshda chet tillarni o'rganishni boshlagan ma'qul?

Chet tillarni bilish kelajakda muvaffaqiyatga erishishning kafolati hisoblanadi.

Ko'pchilik ota-onalar , farzandlari hali o'qish va yozishni bilmasa ham, ularni bolalar uchun ingliz tili o'rgatish o'quv maskanini izlashni boshlaydilar.

Bolani ingliz tili kurslariga qaysi yoshdan berish ma'qul?

Bu masala bo'yicha qarama-qarshi fikrlar shaklangan. Ba'zilar bolalarni bolaligidan mahrum qilishni istamaydilar, boshqalari esa bola yangi bilimlarni eng yaxshi o'zlashtirishi mumkin bo'lgan vaqtga kech qolib va uni o'tkazib yuborishdan qo'rqishadi.

Shuni aytish joizki, so'nggi yillarda ota – onalar orasida quyidagicha urf bo'lgan - bolalari deyarli taglikni tark etmagan paytdan, ular uchun ingliz tilida so'zlashuv muhitni hosil qilishadi va bu albatta ayrim o'rinnlarda tog'ri ham deya olamiz .

Biroq, ikki yoshli bolaga ingliz tiliga o'rgatish shartmi?Bunday qarorni qo'llab-quvvatlovchilar,bolaning nutqi shakllanayotgan ushbu vaqtida: bola oqtituvchisiga taqlid qiladi va shunday tarzda tilni o'rganadi deb hisoblashadi.



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



Demak, xorijiy so'zlar, ular butunlay yodlab olinguncha bolalar ushbu so'zni ma'no mazmunini o'zlari bilishmagan ravishda takrorlashadi.

Shu bilan birga, har kuni va uzoq vaqt mobaynida xorijiy til muhitda bo'lismi ta'minlash kerak.

Bolalar tug'ilgandan beri doimiy o'rganishda. Ular ko'rgan, eshitgan, tegingan, hidlagan va sezgan barcha narsalar ularning xotirasida qoladi va ularning bilimlarining bir qismidir. Va o'rganish, bolalarning dastlabki yillari o'yin, o'yin-kulgi va taqlid shaklida bo'ladi. Bolalar ko'rgan narsalariga taqlid qilganliklari sababli, ular eshitganlarini takrorlaydilar va bularning barchasidan o'rganadilar.

Otalar va onalar o'z farzandlariga ta'lim berish bilan bir qatorda ularga ta'lim berish va ularning tarbiyasida ishtirok etish vazifasini ham bajaradilar. Hamma narsa o'qituvchilarning qo'lida bo'lishi to'g'ri emas, chunki yuqorida aytib o'tganimizdek, bolalar doimiy o'rganishda yashaydilar. Ota-onada sifatida sizda shunday qobiliyat bor bolangizga bilimlarni o'zlashtirishga yordam bering, siz uning miyasini, eshitish qobiliyatini va ushlab turish qobiliyatini tarbiyalashingiz mumkin.

Ingliz tilini o'qitishdagi yana bir muhim jihat shuki o'quvchining qay holatda ma'lumotni to'laqonli qabul qilishini nazorat qilish. Bir guruhdagi bolalarning o'y xayollari, fikrashi, dunyoqarashi ma'lumotni qabul qilishi turlicha bo'ladi. Shunga ko'ra o'qituvchi har bir o'quvchining xarakteri xususiyatidan kelib chiqqan holda ta'lim jarayonini olib borishi kerak. [1, 57].

Misol uchun, qaysidir o'quvchida ko'z bilan eslab qolish, yana birida eshitish orqali eslab qolish qobiliyati tabiatdan shakillangan bo'lishi mumkin. Shu xususiyatlarga ko'ra ingliz tilini o'rganish asosiy 3 yo'nalishda bo'ladi S Visual learning- ko'rish orqali ma'lumotni eslab qolish S Auditory learning -eshitish orqali ma'lumotni eslab qolish S Kinaesthetic learning- harakatlar orqali ma'lumotni eslab qolish Yuqoridagi xususiyatlarni inobatga olgan holda o'qituvchi o'quvchilar bilan dars mobaynida, mashqlar bajarishda, rol playlar tayyorlashda, o'yinlar orqali mavzu tushintirilsa yoki tashkillashtirilsa sezilarni natija hosil qiladi va o'quvchida til o'rganishga motivatsiya beradi [2, 45].

F.Guen metodi. Tabiiy metod vakillaridan fransuz metodisti Guen chet tilini ona tilini o'rgangandek amaliyotda o'rganish tarafдори bo'lgan. U metodikada birinchi bolib leksikaning mavzular (uydagi hayot, mifik jamiyat, tabiat) bo'yicha tasnifini kashf etgan. Chet tilini o'rganishda quyidagi qonun-qoidani taklif qilgan:

1. Odam o'z ehtiyojidan kelib chiqib til o'rganadi.
2. O'rgatish birligi qilib so'z emas, gap tanlanadi.
3. Til o'gatishda og'zaki nutq birlamchi hisoblanadi

F.Guen, M.Berlisga o'xshab, ko'rgazmalilik, ona tiliga tayanmaslik, garamatikaning leksikaga tobelligi kabi shartlarni qo'llaydi. F.Guen o'z sistemasida chet tili lug'at boyligini uchta kata toifaga ajratadi: obektiv, subektiv va ifodali



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



tushunchalarni bildiruvchi so'zlar. Birinchi guruhga obektiv dunyoga oid tushunchalar. Masalan: hayot, jamiyat, tabiatga tegishli. Ikkinchisida inson ruhiga taaluqli tushunchalarni ifodalovchi so'zlar: tushunmoq, hohlamoq.Uchinchi toifada birinchi va ikkinchilarni birlashtiruvchi tushunchalar: chiroy, do'stlik va h.k [3, 111].

Katta yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatishda biz qiyinchiliklarga duch kelmaymiz desak mubolag'a bo'lmaydi.Chunki katta yoshdagi bolalar psixologik taraflama ham jismiy taraflama ham tarbiya jihatidan ham yetilgan bo'ladi.Yashirish joiz emaski kichik yoshdagi bolalarga dars berilgan vaqtda koproq uning kongli, hohishlariga qaralgan holatda dars o'tiladi.Tarbiya jiahatidan ham tarbiya berishga tog'ri keladi.Katta yoshdagi bolalar chet tilini o'rganish jarayonida o'sha davlatning urf -odatlari hamda madaniyati tog'risida ham ma'lumotlarga ega bo'ladi.Albatta katta yoshdagi bolalarga ham biz ba'zida turli xil o'yinlar orqali dars o'tishimiz joizdir.Chunki bolaga nuqlu dars va yozmali ishlarga oxshash narsalar orqali bolada ushbu sohadan fandan bezishi natijalari ham kutilishi mumkin.Albatta biz ushbu yoshdagi bolalarga o'zlarining yoshlaridan kelib chiqqan holda o'yin va shunga o'xshash metodlar qo'llay olamiz.

Yoshi ulug' insonlarda ham chet tilini organishga qiziqish mavjud albatta .Tog'ri barchasi deb ayta olmaymiz ushbu yoshdagi ayrim insonlarda yoshiga qaramasdan chet tillarini o'rganishga bo'lgan hoxish juda yuqori darajada bo'lishi mumkin. Ilm olish , bilimlarini yanada boyitish aslida ushbu narsalarning erta kechi yo'qdir. Bilim olish bu igna bilan quduq qazish singaridir deb bejiz aytishmagan.bilim olish o'ta murakkab ishdir,bu uchun kata mahorat,sabr kerak boladi. Katta yoshdagi hotirjam hamda sabrli insonlarimizgina chet tiliga qiziqishadi va uni o'rganishga bo'lgan ishtiyoq ulkan bo'ladi.

Noisy dictation-o'yin maqsadi grammatikani rivojlantirish. O'yinning borishi:Sinfdag'i o'quvchilar bir biriga yuzma-yuz qilib joylashtiriladi va vaqt belgilaninib bir vaqtda bir birlarini ham eshitib ham ro'parasidagi o'quvchining aytga so'zlarini ilg'ab to'g'ri yoza olishi kerak.

Bu o'yin biroz shovqinli bo'ladi va aynan mana shu shovqin ularga hatto shunday vaziyatda ham so'zlarni ilg'ay olishni rivojlantirish imkonini beradi. Listening- eshitish texnikasini oshiradi. Ingliz tilida so'zlar eshitilganidek yozilmaydi, masalan speak gapirmoq so'zida {ea} diftongi [i] tovushini beradi [spi:k]. Agar o'quvchi so'zlarni to'g'ri anglay olsa demak bu yaxshi natija. Bu o'yin boshlang'ich hamda yuqori sinflarda ham qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, Ingliz tili darslarida innovations usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatları rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi.Bunday usullar o'quvchida bilimga ishtiyoq uyg'otadi. O'quvchi darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi. Bu esa o'quvchilarni ta'lif jarayonining faol sub'yeqtlariga aylantiradi.Ta'lif tizimi o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni

tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlabchiqshimiz bilan o'z xissamizni qo'shishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1 BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O'QITISH METODIKASI 2022/Sinflarda Ingliz Tilini O'Qitish Metodikasi Baboqulova Madina Mirzohid Qizi
- 2 INGLIZ TILINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARASI 2022 ToshxoJayeva Gulhayo O'ktam Qizi
- 3 <https://cyberleninka.ru/article/n/temurbeklar-maktab-larida-ingliz-tili-mashg-ulotlarida-o-quvchilarning-iжtimoiy-kompetentsiyasini-shakllantirish>